

UMUMIY FIZIKA FANIDAN ELEKTRON TA'LIM RESURSLARIDAN

FOYDALANISH

Arziqulov Zayniddin Qo'ziyevich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada Fizika fanini o'qitishda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishning asosiy omillarning mazmun-mohiyatini yoritilgan va amaliyotda ta'lim jarayoniga qo'llaniladigan iSpring pedagogik dasturiy vositasi bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqarilgan. Fizika fanidan testlar yaratish ushuni mo'ljallangan iSpring Suite dasturidan foydalanish yollari ko'rib chiqilgan

Tayanch so'zlar: pedagogik dasturiy vositalar, elektron testlar, Microsoft PowerPoint, Adobe Flash texnologiyasi, iSpring Suite dasturi.

Hozirda ta'lim jarayonidagi amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, jumladan ilg'or innovatsion texnologiyalarning olib kirilishi ta'limni tizimli amalga oshirishga yangicha nuqtai nazardan yondoshishni talab qiladi. Bugungi kunda axborot vositalaridan barcha sohalarda keng qo'llanilgan bir vaqtda, fanlarni kompyuter dasturlari orqali fizik xodisalarni, tajribalarni namoyish qilish va kuzatishda, fizika kursida turli fizik jarayonlarni o'rganishda pedagogik dasturiy vositalardan keng foydalanish mumkin. Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita bo'lib, ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Elektron testlar-saqlangan, ishlov berilgan va baxolash uchun kompyuter yoki telekommunikatsion texnikasi yordamida taqdim etiladigan testlar. Testlar berilishi o'rganilgan matnni talabaning yoki o'quvchining qanchalik darajada o'zlashtirganligi o'z-o'zini baholash imkonini beradi. Hozirda shunday zamonaviy o'quv dasturiy vositalar ishlab chiqilganki, ular yordamida turli qiyinlik darajadagi testlarni yaratish va o'tkazish imkoni mavjud bo'lib, bularga oxirgi vaqtda keng tarqalgan, ta'lim jarayonida, jumladan fizika o'qitishda qo'llaniladigan dasturiy vositalar - iSpring dasturiy majmuasini misol qilib keltirish mumkin. Biz quyida iSpring dasturi asosida qanday qilib zamonaviy testlarni yaratish va o'tkazish mumkinligini ko'rib chiqamiz. Ushbu dastur mustaqil redaktor emas, balki Microsoft PowerPoint uchun ustqurma hisoblanadi. Bunday yondashuv, birinchi galda, ushbu mahsulotning keng ommalashgani bilan bog'liq. Foydalanuvchilar u bilan ishlashni yangidan o'rganishlari shart emas va ular iSpring Suite ning nodir funksiyalari PowerPoint bilan qo'shilgan holdagi hamma imkoniyatlardan foydalanishlari mumkin. Ishga tushirishda paketdagi dasturlardan istalgani bilan ishlashni tanlash mumkin. SHunday qilib, Microsoft PowerPoint foydalanuvchilari uchun iSpring Suite yordamida slaydlarga iSpring QuizMaker

dan testlar elementini qo'shish mumkindir. Testlar yordamida foydalanuvchilar taqdimotni qanchalik yaxshi o'zlashtirganliklarini tekshirish mumkin. Yozish jarayoni dasturning alohida darchasida amalga oshiriladi, uerda slaydlarni tanlash, qo'shimchalar qo'shish va sozlashlarni bajarish mumkin. Biz ko'rayotgan paket tarkibiga kiruvchi boshqa utilit -iSpring QuizMaker dan iborat. U iSpring Suite da yaratiladigan taqdimotlarning ichiga joylashtirish yoki alohida roliklar ko'rinishida chop etish mumkin bo'lgan testlar va so'rovnoma tuzish uchun xizmat qiladi. Savollar turlari yetarlicha ko'p – testlar uchun o'n bitta va so'rovnoma-savollar uchun o'n ikkita. Har bir savolga bir nechta variant javoblar beriladi va to'g'risini ko'rsatiladi – agar savol sifatida albatta esse turidan foydalanilgan bo'lsa. Sozlashlarda urinib ko'rishlar soni, to'g'ri javoblar uchun ballar, umumiy o'tish bali, vaqtni cheklash va boshqa opsiyalarni ko'rsatish mumkin, shuningdek, pleerning tashqi ko'rinishi tanlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Hart A. Teaching the Media. International Perspectives. – London: Lawrence Erlbaum Assoc, Publishers, 1998. – PP. 1-21.
2. Heim Michael. The Metaphysics of Virtual Reality. – New York: «Oxford», 1993. – P. 8.
3. Абдуқодиров А.А. Теория и практика интенсификации подготовки учителей физико-математических дисциплин: Аспект использования компьютерных средств в учебно-воспитательном процессе: диссертация ... доктора педагогических наук: 13.00.01 / Ташкент. гос. пед. ин-т им. Низами. - Ташкент, 1990. – С. 360.
4. Арипов М.М. Юлдашев З.Х. Система определения рейтинга активности преподавателей кафедр // XII Российская конференция с международным участием "Распределенные информационно-вычислительные ресурсы" (DICR'2008) - Академгородок, Новосибирск, 2008г.
5. Бегимкулов У.Ш., Джураев Р.Х., Исянов Р.Г., Шарипов Ш.С., Адашбоев Ш.М., Цой М.Н. Педагогик таълимни ахборотлаштириш: назария ва амалиёт, – Т.: – 2011.
6. Қосимова Э. Физика фанини ўқитиш ва лаборатория машғулотларни ўтказишда медиатаълимдан фойдаланиш ва унинг ўқув сифатини оширишдаги роли // Таълим жараёнига замонавий педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларни жорий этиш: муаммо ва ечимлар. Рес.илмий-амал.конф. – Т.: Республика Таълим маркази, 2012. – Б. 70-72.
7. Муртазаева У. И. Виртуал лабораториялар, уларнинг вазифалари ва улардан таълим жараёнида фойдаланиш имкониятлари // Фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясида ахборот-коммуникация технологияларини қўллашнинг ҳозирги замон масалалари. Рес.илмий-амал.конф. – Нукус, 2015. – Б. 265-268.
8. Турдиев Н.Ш. Ўқув машғулотида медиатаълим бериш ва медиатанлар билан ишлаш технологияси // Таълим жараёнига замонавий педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларни жорий этиш: муаммо ва ечимлар. Рес.илмий-амал.конф. – Т.: Республика Таълим маркази, 2012. – Б. 18-20.